



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

TIL MADANIY REALLIKNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA: NAZARIY TAHLIL

Tursunova Mavluda Erkinovna
Samarqand davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi hamda ularning nazariy jihatlari yoritiladi. Til va madaniyat uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida talqin etilib, ularning o'zaro ta'siri va mazmuniy uyg'unligi ochib beriladi. Tadqiqot madaniy lingvistika doirasida shakllangan konseptual tizimlar orqali til vositasida ifodalanadigan madaniy ma'nolarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Natijada til va madaniyat integratsiyasi inson ongida madaniy reallikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: madaniy lingvistika, til va madaniyat, madaniy reallik, paradigma, konseptuallashuv, kognitsiya, ong, falsafa, til tizimi, ijtimoiy jarayonlar.

ЯЗЫК КАК МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОЙ РЕАЛЬНОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Турсунова Мавлуда Эркиновна
Самаркандский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются взаимосвязи языка и культуры на основе современных научных подходов, а также раскрываются их теоретические аспекты. Язык и культура рассматриваются как взаимосвязанные сложные системы, что позволяет выявить сущность их взаимодействия и содержательное единство. Основное внимание уделяется системному анализу культурных значений, выражаемых посредством языка, в рамках культурной лингвистики. В результате обосновывается, что интеграция языка и культуры является важным фактором формирования культурной реальности в сознании человека.

Ключевые слова: культурная лингвистика, язык и культура, культурная реальность, парадигма, концептуализация, когниция, сознание, философия, языковая система, социальные процессы.

LANGUAGE AS A MECHANISM FOR THE FORMATION OF CULTURAL REALITY: A THEORETICAL ANALYSIS

Tursunova Mavluda Erkinovna
Samarkand State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the interrelationship between language and culture based on modern scientific approaches and explores their theoretical aspects. Language and culture are interpreted as interconnected complex systems, revealing the essence of their interaction and semantic unity. The study focuses on the systematic analysis of cultural meanings expressed through language within the framework of cultural linguistics. The findings demonstrate that the integration of language and culture serves as a key factor in shaping cultural reality in human consciousness.

Keywords: cultural linguistics, language and culture, cultural reality, paradigm, conceptualization, cognition, consciousness, philosophy, language system, social processes.

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga bo'lgan ilmiy qiziqish XVIII asrdan boshlab shakllana boshlagan. Bu borada Wilhelm von Humboldt, Edward Sapir va Benjamin Lee Whorf

kabi olimlar til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab berib, mazkur yo'nalish rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, til nafaqat madaniy va kognitiv jarayonlarni aks ettiradi, balki ularga bevosita ta'sir ham ko'rsatadi.

Shunga qaramay, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni yagona tizim asosida o'rganish masalasi hanuz to'liq yechimini topgan deb bo'lmaydi. Shu jihatdan Alessandro Duranti [2; 323–347-b.] til va madaniyatni o'rganishda uchta asosiy paradigmani ajratib ko'rsatadi. Bu paradigmalarda tilga bo'lgan turli nazariy qarashlar, tushunchalar va tadqiqot yo'nalishlari bilan farqlanadi. Har bir paradigma ma'lum bir tarixiy davr bilan bog'liq bo'lsa-da, ular bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Madaniyat va til o'rtasidagi munosabatni o'rganish tarixini AQSH paradigmalari asosida ko'rish mumkin bo'lgan jadval quyidagicha ifodalanadi:

| Maqsadi | Til ko'rinishi | Mavjud bo'lgan belgilar |
|---|---|---|
| Mahalliy tillarning tavsiflanishi, tasniflanishi va hujjatlanishi | Til grammatika va leksika sifatida | Antropologik lingvistik |
| Tilning kontekstda ishlatilishi | Til madaniy jihatdan tashkillashtirilgan va tartibga soluvchi soha sifatida | Lingvistik antropologiya, nutq etnografiyasi Ijtimoiy konstruktivizm |
| Shaxsni shakllantirish, hikoya qilish va mafkura | Til indeks qiymatlari bilan bog'liq interaktiv yutuq sifatida | Ijtimoiy konstruktivizm |

Madaniyat va til o'rtasidagi munosabatni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy yo'nalishning sekin rivojlanishi ushbu munosabat tarkibidagi asosiy tushunchalarning murakkabligi bilan izohlanadi. "Til nima?" va "Madaniyat nima?" kabi savollarga turli ilmiy yondashuvlar asosida javob berilishi bu muammoning ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu tushunchalarning aniq chegaralarini belgilash qiyinligi til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yagona tizim sifatida izohlashni murakkablashtiradi.

O'tgan asr davomida tilga bo'lgan qarashlar sezilarli darajada o'zgarib bordi. Til turli davrlarda ongning funksiyasi, inson faoliyatining shakli, ijtimoiy amaliyot yoki kognitiv tizim sifatida talqin qilindi. Bunday yondashuvlar tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki insonning borliqni anglash va uni ifodalash jarayonidagi faol ishtirokini ham ko'rsatadi.

Madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik esa turli fan yo'nalishlarida turlicha talqin etiladi. Shu sababli ushbu munosabatni o'rganishda turli nazariy va metodologik yondashuvlar shakllangan. Aynan shu yondashuvlar asosida tilni faqat aks ettiruvchi vosita sifatida emas, balki madaniy reallikni shakllantiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda konstruktivistik paradigma alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson reallikni bevosita aks ettirmaydi, balki uni idrok va tafakkur jarayonlari orqali shakllantiradi. Michael Wendt ta'kidlaganidek, tilni o'rganish va tadqiq etish jarayonida kontekst muhim rol o'ynaydi, chunki reallik inson ongida qayta ishlanib, ma'noli tizimga aylantiriladi. Muallifning fikricha, "mental processes turn reality into contexts", ya'ni insonning kognitiv faoliyati real borliqni muayyan kontekstlar tizimiga aylantiradi [8; 92–105-b.]. Bu esa shuni anglatadiki, reallik tayyor holda mavjud emas, balki til, tafakkur va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, til nafaqat kommunikativ vosita, balki reallikni mazmun bilan to'ldiruvchi va uni tushunarli shaklga keltiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Chunki til orqali inson borliqni tartibga soladi, unga ma'no beradi va uni ijtimoiy tajriba doirasida qayta ishlab chiqadi. Demak, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik konstruktivistik yondashuv asosida yanada chuqurroq tushuntiriladi va bu holat tilning reallikni

shakllantirishdagi faol rolini tasdiqlaydi.

Madaniy lingvistika. Madaniy lingvistika tilning madaniy jihatdan shakllangan konseptual tizimlarni aks ettiruvchi yoki ifodalovchi xususiyatlarini o'rganadi. Konseptual tizimlar inson tajribasining barcha jabhalarini qamrab oladi. Umuman olganda, tilning xususiyatlari madaniy tushunchalarga chuqur singib ketgan va ular bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniy lingvistikaning nazariyasi kognitiv psixologiya, murakkab tizimlar nazariyasi va antropologiya kabi fan yo'nalishlariga tayanadi. Shuningdek, ushbu yo'nalish amaliy lingvistikaning turli sohalarida ham qo'llanib kelinmoqda. Masalan, madaniyatlararo muloqot, madaniyatlararo pragmatika, ingliz tilini xalqaro til sifatida o'rgatish hamda siyosiy diskurs tahlili shular jumlasidandir. Demak, madaniy lingvistika til qo'llanilishida madaniy tushunchalarni o'rganish uchun ham nazariy, ham analitik asosni taqdim etadi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, lingvokulturologik yondashuv tilni nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning madaniy tajribasini aks ettiruvchi va uni shakllantiruvchi muhim tizim sifatida talqin qilish imkonini bermoqda. Shu bois ushbu yo'nalish doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, tilni madaniyat bilan uzviy bog'liq tizim sifatida o'rganishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, bu yo'nalish "til va madaniyatning o'zaro ta'sirini tahlil qilish orqali jamiyat rivojiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi" [11; 2012].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, lingvokulturologik tadqiqotlar tilning jamiyat hayotidagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Til orqali madaniy ma'nolar nafaqat ifodalanadi, balki ular tizimlashtirilib, ijtimoiy ongda mustahkamlanadi.

Nazariy model doirasida madaniy sxemalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar madaniy konseptuallashtirishning muayyan ko'rinishlari sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ushbu birliklar analitik vositalar sifatida ham xizmat qilib, til orqali ifodalangan madaniy ma'nolarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Shu asosda aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan lingvokulturologik tadqiqotlar tilning madaniy reallikni shakllantirishdagi rolini yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Til orqali madaniy ma'nolar nafaqat ifodalanadi, balki ular ijtimoiy ongda tizimlashtirilib, mustahkamlanadi. Bu esa tilni jamiyatning madaniy tajribasini saqlovchi va uni rivojlantiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy lingvistikaning nazariy asoslari. Madaniy lingvistika nazariyasida markaziy o'rinni "madaniy kognitsiya" tushunchasi egallaydi. Ushbu jarayon til bilan bog'liq holda madaniyat va bilish jarayoni o'rtasidagi o'zaro munosabatni yaxlit bir tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Kognitiv jarayonlarni madaniy lingvistika nazariyasi faqat individual ong doirasida emas, balki undan kengroq, ya'ni ko'p fanlararo yondashuv asosida izohlaydi [1; 7–19-b.].

Madaniy kognitsiya alohida va abstrakt ongiy hodisa sifatida emas, balki vaqt va makon davomida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy hamda lingvistik o'zaro ta'sirlar natijasida shakllanadigan faol kognitiv jarayon sifatida qaraladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, nutq jamoasiga xos madaniy kognitsiya barcha a'zolar tomonidan bir xil darajada egallanmaydi. U taqsimlangan kognitsiya shakliga ega bo'lib, jamoa a'zolari o'rtasida notekis taqsimlanadi. Har bir individning madaniy bilimlarga egalik darajasi va o'ziga xos xususiyatlari turlicha bo'ladi.

Bundan tashqari, madaniy kognitsiya dinamik xarakterga ega bo'lib, u avlodlar almashinuvi jarayonida hamda turli nutq jamoalari o'rtasidagi aloqalar orqali uzluksiz ravishda shakllanadi va yangilanadi.

Madaniy kognitsiyani o'rganish kognitiv fanlarning turli yo'nalishlari bilan uyg'unlikda

olib boriladi. Ayniqsa, u kognitsiyani individlararo o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan tizim sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar bilan umumiy jihatlariga ega bo'lib, kognitiv jarayonlarning ijtimoiy va kollektiv tabiatini alohida ta'kidlaydi.

Til madaniy bilishning asosiy qismi sifatida nutq jarayoniga xos bo'lgan umumiy bilim va tajribani aks ettiruvchi "yig'ilgan xotira banki" vazifasini bajaradi [7; 1968]. Muloqot jarayonida tilning ko'plab xususiyatlari turli tarixiy davrlarda shakllangan madaniy bilish elementlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, ular hozirgi lingvistik jarayonda ham o'z izini saqlab qolgan. Til madaniy bilishni saqlash va madaniy ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida qaraladi. U nafaqat madaniy bilimlarni saqlaydi, balki ularni avloddan avlodga yetkazishda dinamik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Til va madaniy reallik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishda zamonaviy lingvistik tadqiqotlar tilning faqat aks ettiruvchi emas, balki faol shakllantiruvchi rolini ta'kidlaydi. Xususan, Ye. V. Senko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda til tizimidagi strukturaviy o'zgarishlar insonning borliqni idrok etish va tushunish usullariga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Muallifning fikricha, jamiyatdagi dinamik o'zgarishlar til rivojiga ta'sir etib, u orqali reallikning konseptuallashuvi ham transformatsiyaga uchraydi [4; 566–577-b.].

Mazkur yondashuv doirasida ayniqsa tilning analitiklashuv jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda qayd etilishicha, analitik konstruksiyalarning kengayishi va yangi so'z yasash modellari paydo bo'lishi tilning ichki tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi va bu jarayon real borliqni ifodalashning yangi usullarini shakllantiradi. Shunga ko'ra, til tizimidagi analitik tendensiyalar nafaqat grammatik darajadagi o'zgarishlarni, balki inson tafakkurining yangi konseptual modellarini ham yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat antropotsentrik paradigma doirasida talqin qilinib, til milliy-madaniy dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Muallif ta'kidlaganidek, til orqali ifodalangan yangi leksik birliklar va analitik strukturalar jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni aks ettiribgina qolmay, balki ularni qayta talqin qilish va yangi ma'nolar bilan boyitishga ham xizmat qiladi [7; 2023].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tilni madaniy reallikni shakllantiruvchi mexanizm sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Chunki til tizimidagi o'zgarishlar nafaqat kommunikativ ehtiyojlar bilan belgilanadi, balki insonning borliqni idrok etish usullarini, ya'ni uning kognitiv va madaniy tajribasini ham shakllantiradi. Demak, til madaniy reallikni yaratish va uni avloddan avlodga uzatishda markaziy rol o'ynaydi.

Shunday qilib, til madaniy reallikni shakllantirishda kognitiv, semantik va diskursiv mexanizmlar orqali faol ishtirok etadi.

Madaniy konseptuallashuvlar faqatgina til bilan cheklanib qolmay, balki inson hayotining boshqa sohalarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, madaniy san'at, adabiyot, madaniy tadbirlar, xalq og'zaki ijodi, marosimlar, noverbal xatti-harakatlar hamda emotsiyalar shular jumlasidandir. Shuning uchun madaniy konseptuallashuvlarni o'rganish faqat lingvistika bilan cheklanib qolmaydi, ular inson hayotining barcha sohalarida o'z aksini topadi. Natijada, konseptlarni tadqiq qilish fanlararo xarakterga ega bo'lib, falsafa, antropologiya, psixologiya, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, teologiya va tasviriy san'at kabi turli soha mutaxassislarini qamrab oladi.

Madaniy lingvistika turli fan sohalarini mutaxassislarini birlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, o'z soha vakillariga masalalarni ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkonini beradi. Shuningdek, ilgari e'tibor qaratilmagan muammolarni aniqlash va ularni chuqur tadqiq qilishga ham imkon yaratadi [8; 92–105-b.].

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda tilning madaniy reallikni shakllantirish jarayoni kognitiv, semantik va diskursiv mexanizmlar birligi asosida tizimli tarzda asoslab beriladi. Maqolada tilning nafaqat aks ettiruvchi, balki madaniy reallikni shakllantiruvchi mexanizm sifatidagi roli nazariy jihatdan yoritilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, madaniy lingvistika turli fan sohalari o'rtasida integrativ bog'lovchi vazifasini bajaradi, yangi ilmiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Clark A., Chalmers D. The extended mind // *Analysis*. — 1998. — Vol. 58, No. 1. — P. 7–19.
2. Duranti A. Language as culture in U.S. anthropology: three paradigms // *Current Anthropology*. — 2003. — Vol. 44, No. 3. — P. 323–347.
3. Frank R. M. Cultural linguistics // In: Sharifian F. (ed.). *The Routledge Handbook of Language and Culture*. — London: Routledge, 2015.
4. Senko E. V. Language analytization as a transformation mechanism of reality conceptualization // *Language Sciences*. — 2002. — Vol. 24, No. 5–6. — P. 567–577.
5. Sutton J. Memory and the extended mind: embodiment, action, and cognitive extension // *Philosophical Psychology*. — 2005. — Vol. 18, No. 4. — P. 531–552.
6. Sutton J. Distributed cognition: domains and dimensions // *Pragmatics & Cognition*. — 2006. — Vol. 14, No. 2. — P. 235–247.
7. Thiong'o N. wa. *Decolonising the Mind: The Politics of Language in African Literature*. — Oxford: James Currey, 1986.
8. Wendt M. Context, culture and construction: research implications of theory formation in foreign language methodology // In: Byram M., Grundy P. (eds.). *Context and Culture in Language Teaching and Learning*. — Clevedon: Multilingual Matters, 2003. — P. 92–105.
9. Wilson R. A. *Boundaries of the Mind: The Individual in the Fragile Sciences*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
10. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. — Toshkent: Fan, 2006.
11. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.